Go'daklik davrida muloqot: Tabiatda inson bolasigina o'jiz va kattalarning g'amxo'rlikiga muhtoj bo'lib tug'iladi. Lekin inson farzandiga berilgan eng katta imkoniyat bu uning o'rganishga bo'lgan ehtiyojidir. Aytish mumkinki, odam bolasi o'rganishga "dasturlangan" holda tug'iladi. Shu tufayli qisqa vaqt ichida u juda ko'p bilimlarni o'zlashtiradi.

Olimlar 3 yoshgacha bo'lgan davrni inson yoshidagi "eng muhim davr" deb tahkidlashadi. Zero, mana shu qisqa davr ichida inson butun umri davomida o'rganishi kerak bo'lgan bilimlarning taxminan 70 foizini o'zlashtirar ekan. Tilni, nutqni o'rganishning o'ziyoq g'oyat katta salmoqli bilimlarni o'zlashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda olimlar XXI asrda dunyoga kelayotgan chaqaloqlar orasida g'ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar ko'plab tug'ilayotganligini ta'kidlashadi. Bunday bolalarni ekstrases Nensi Enn Tepp ta'biri bilan aytganda, "Indigo bolalar" deb atashadi¹. Ayniqsa, 1990-yildan so'ng "indigo bolalar" haqida ko'plab kitoblar va filmlar yaratilgandan so'ng bu atama keng ommalashdi. "Indigo bolalar"ning o'ziga xos xususiyatlari:

- odamoviligi, muloqotga kirishishdan qochish, o'z "men"ligini yuqori baholash, individuallik, boshqalarga bo'ysunmaslik, avtoritetlarni tan olmaslik;
- yuqori darajadagi intellekt bilan birgalikda katta ijodiy potensial;
- bilimlarni empirik yo'l bilan egallashga moyillik, bir-biridan uzoq bo'lgan predmetlarga bo'lgan qiziqish;
- betoqatlik, g'ayratlilik, diqqat tanqisligi;
- impulsivlik, kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, depressiyaga moyillik;

¹ ("Индиго" термини рангга нисбат берилди, яъни бундай болалар атрофида индиго рангли аура бўлади, - деб ҳисоблашади).

- ijtimoiy adolatsizlikni his qilish, yuqori darajadagi mas'uliyat;
- anaaviy tarbiya vositalarini qabul qilmaslik;
- intuitsiyaning, xavf hissining rivojlanishini;
- raqamli texnologiyalarni tez o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat.²

Ammo, ba'zi olimlar bu hodisani "ilmiy qarashlardan yiroq to'qima nazariya", – deb hisoblashadi. "Indigo bolalar"ning o'ziga xos xususiyatlarini esa ular bolalarda uchraydigan "giperaktivlik" hodisasi bilan tushuntirishadi.

Chaqaloqlik davrida kattalar bilan mulogot bevosita bolani qo'liga olish orqali amalga oshiriladi. Bola qo'liga olinganda aloqa bog'lanadi, gayta qo'yilganda esa aloqa uziladi, u yig'lay boshlaydi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, bola psixologik jihatdan me'yorida rivojlanishi uchun ona uni kun davomida kamida 30-35 marotaba qo'liga olishi kerak ekan. Shuni aytish joizki, aynan onaning bolaga qo'l tekizib turishiga bo'lgan ehtiyoj butun umr davomida saqlanib qoladi va tarbiya vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mutaxassislar vaqt-vaqti bilan bolaning boshini silash yoki yelkasiidan qoqib qo'yish u bilan bo'ladigan ishonchi mulogotni ta'minlab turvchi vosita ekanligini e'tirof etishadi. Millatimizda bu tajriba azaldan mahlum bo'lgan, keksa avlod vakillari bo'lgan otaxonlarimiz, ayniqsa, bu vijonlarimiz farzand bilan mulogotda, albatta, bu go'dadaga amal qilishgan.

Bola predmetlarga bo'lgan qiziqishini, avvalo, kattalarga murojaati orqali bildiradi. Kerakli yordamni nutqni qo'llash orqali oladi. Bu yerda kattalar bolaga qanday talablar qo'yishlari muhim o'rin tutadi. Kattalar agar bola bilan kam mulogotda bo'lsalar, uning nutqi rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. Mulogotga bo'lgan ehtiyoj bolada o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki predmet faoliyati bo'yicha kattalarning mulogoti orqali o'sadi.

Bolaning hali "tili chiqmagan" paytdayoq unda "ichki nutq" paydo bo'ladi. Biror-bir aniq jumlani ayolmasa ham chaqaloqda

² Википедия. ru.wikipedia.org...

PEDAGOGIK MULOQOTNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

IV BOB.

xohlagan axborot ko‘rinishidagi ichki «to‘siqlarga duch kelishi»dan dalolat beradi. Haqiqatni oshkor qiluvchi axborotlarni yashirishga harakat qilar ekan, inson, albatta, yolg‘ondan foydalanadi.

gapirish istagi paydo bo‘ladi. Shu davrda oiladagi kattalar, ota-ona, aka-opalar bolaga qancha ko‘p gapirsa, unda ichki nutq shuncha mukammal shakllanadi. Hatto bu narsa uning kelajakda nutqining boy bo‘lishiga, xarakter xususiyatlarining shakllanishida ijobiy rol o‘ynaydi.

Kattalar tomonidan bo‘ladigan to‘g‘ri muloqot chaqaloqda muloqotga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. Bolaning muloqoti reaktiv (passiv) yoki aktiv (faol) shaklda bo‘ladi. Bolaning kattalar bilan qiladigan muloqoti dastlab kattalarning yuziga va ko‘zlariga qarashdan boshlanadi. Bir yarim-ikki oylikda bola kattalarning jilmayishiga o‘zining kulgusi bilan javob qaytaradi.

Ilk bolalik davrida muloqotning ahamiyati: Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ikki xil yo‘l orqali amalga oshiriladi: kattalar nutqini tushunishi hamda bolaning shaxsiy faol nutqi shakllanishi orqali. Bola bilan onaning muloqoti faqatgina so‘zlar bilan emas, balki mimika, imo-ishora, pantomimika, ohang va vaziyat kabilar orqali amalga oshiriladi. Bular harakatga signal bo‘lib xizmat qiladi.

Bola 3 yoshgacha atrofidagi narsalarni ushlab ko‘rib, og‘ziga solib, ochib o‘rgansa, unda nutq paydo bo‘lgandan keyin bilimlarni egallash jarayoni yanada tezroq, samaraliroq kecha boshlaydi. Dunyoda qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan so‘z va iboralar borki uni faqat “ikkinchi signallar tizimi” hisoblangan nutq orqaligina tushunish mumkin. (Rus psixolog olimi A. Pavlovning “ikkinchi signallar tizimi” bo‘yicha tadqiqotlarining asosiy mohiyati shundaki, predmetdan kelayotgan signal “birinchi signal” bo‘lsa, so‘z orqali o‘sha predmetning obrazini tasavvur qilish orqali “ikkinchi signal” yaratiladi. Masalan, olmani ko‘rganda u haqidagi tasavvur ongimizda namoyon bo‘lgani kabi, “qip-qizil olma” degan so‘zlar ham ongimizda xuddi shu tasavvurni paydo qiladi).

Olimlar bu davrni “savollar davri” deb atashadi. Har tomonlama sog‘lom rivojlanayotgan bola, albatta, savol berishi lozim. Xo‘sh,

Nigohning oldiniga o'ngga va yuqoriga (obrazni o'ylab topish), keyin esa diagonal bo'yicha chapga va pastga (javobni tayyorlash) qaratilishi javobni o'ylab topish jarayoni yoki yolg'ondan dalolat beradi.

Asabiy harakalar

Kishi birdaniga kiyimlarni, soch turmagini tuzata boshlaydi, stol ustidan nimalarnidir supurib tashlaydi, predmetlarning joyini o'zgartiradi, tana holatini almashtiradi, changni qoqadi va boshqa nazorat qilib bo'lmaydigan odatiy tana harakatlarni bajaradi.

G – varianti: Ovozning bo'g'irishi va yo'talish

Yolg'on tomq muskullari spazmini keltirib chiqaradi, birdaniga odamning ovozi bo'g'iriladi va u yo'talishga harakat qiladi. O'zingiz yoki boshqa tajribasiz notiqning o'z xohishiga qarshi auditoriya oldida gapirishga harakat qilganini eslang. Xuddi shuning uchun ham odatda notiq oldiga stakanda suv qo'yiladi.

D – varianti: Ovoz tembrining ko'tarilishi

Yuqori tembrdagi ovoz boshdan, aqldan, past tembrdagi ovoz esa yurakkdan yoki his-tuyg'udan yuzaga keladi deyishadi. Shuning uchun, biz biror narsani ataylab o'ylab topganimizda yoki aytishimiz zarur bo'lgan (lekin o'zimiz xohlamagan) gapni aytayotganimizda ixtiyorsiz ravishda ovozimizni ko'taramiz, baqirib gapiramiz. Biz o'z tuyg'ularimiz va kechinmalarimiz haqida gapirganimizda esa ovoz tembrimiz beixtiyor pasayadi, gaplarimiz atrofdagilariga ko'proq ishonch uyg'otadi. Shu sababli radio va televideniya past tembrli ovozga ega bo'lgan diktorlar ko'proq tanlanadi.

E – variant: Iboralarning tugamay qolishi

Kishi ayrim iboralarni oxirigacha aytmaydi va zarur bo'lmagan pauzalarga yo'l qo'yadi. Odatda, bu narsa kishining yashitishi

savol tug'iladi: mabodo bola savol bermasa-chi? Mutaxassislar fikricha, agar bola savol bermasa, tarbiyachilarning o'zi savol bera boshlashi zarur ekan.

Bola qachon savol beradi? Agar u muammoga, jumboqqa duch kelsa. Faylasuflardan biri: "bolaning aqliy rivojlanishi savol berish va hayratlanishdan boshlanadi", – degan ekan.

Lekin aynan shu joyda tarbiyadagi ikkinchi muammo boshlanadi, ya'ni savolga javob beruvchi tarbiyachilarning bilim darajasi, saviyasi. Bola savolga qanchalik aniq, mukammal javob olsa, uning dunyogarashti shunchalik keng rivojlanadi. Shuning uchun, ota-ona barcha fanlar yuzasidan to'laqonli bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Tarixda o'tgan buyuk allomalarni biologiyasiga e'tibor qilsangiz, barchalarning onalari o'qimishli ayollar bo'lganligiga guvoh bo'lasiz. Alisher Navoiy, Furgat, Muqumiy kabi ulug' shoirlarimizning vohdalari o'z davrlarining o'qimishli ayollari bo'lganligi sir emas.

Sharqona ko'p tabaqali (ota-ona, bobo-buvi, farzandlar, nevarar-chevalar) oilalarning o'ziga xos ijodiy xususiyati ham shundaki, bobo-buvilar nevaralar bilan ko'proq vaqt o'tqazib, ularning savollariga javob berish ko'proq ularning zimmasiga tushadi.

Yana bir muammo, bolaning savollariga iloji boricha pajsalga solmay, o'sha zahotiyog javob berish zarur. Gohida, millatimizga xos sharm-hayo, andisha bolaning savollarining javobsiz qolishiga sabab bo'ladi. Masalan, avtobusda ketayotgan yosh ona bolasining bergan savoliga, albatta, "jim o'tir, uyat bo'ladi", – deya javob qaytarishi tabiiy. Lekin aynan shu savol bolaning xayoliga yana qachon keladi, buni aytish qiyin. Balki buning uchun oylar kerak bo'lar, natijada bola dunyogarashti rivojlanishi nisbatan ortga surilishi mumkin.

3 yoshga to'lganda bola kattalar bilan munosabatlarga bernalol nuqt orqali kirisha oladi. Bu yoshdagi bolalar hamma kiyimini o'zi kiyishga harakat qiladi. O'z ehtiyojlarini so'zlar orqali bayon qila oladi. Chunki nuqtini to'la egallaydi. Bola kattalarning ko'rsatmasiga binoan xatti-harakatlarni to'g'ri yo'naltirishga o'rganadi. U

emotsional, ta'm va hid bilish axborotlari) ning qayta ishlanishi bilan bog'liq.

Ko'z qarashi yo'nalishining ichki axborot analizi jarayonlari bilan bog'liqligi (o'ng qo'l yetakchi bo'lganda)

| Ko'z harakatlari | Axborotni idrok qilish usuli | Idrok tipi |
|--|---|--|
| <i>Chap va yuqoriga ko'rish obrazi</i> | Xotira | Vizual |
| <i>O'ngga va yuqoriga</i> | Yangi ko'rish obrazini yaratish | Vizual |
| <i>Ko'zlarni bir nuqtaga qaratish, qorachiqlar biroz kengaygan</i> | Xotira yoki yangi obrazni yaratish | Vizual |
| <i>Gorizontal bo'yicha o'ngdan chapga</i> | Ichki nutqqa quloq solish (eshitish axboroti bilan ishlash) | Eshitish |
| <i>Chapga va pastga</i> | Ichki dialog, javobni tayyorlash, so'zlarni obdon tanlash | Eshitish |
| <i>O'ngga va pastga yoki to'g'riga va pastga</i> | Hid – ta'm va jismoniy sezgilar | Kinestetik (jismoniy sezgilar bilan bog'liq) |

Izoh: chapaqaylarda jadvaldagi o'ng va chap tomonlar o'rin almashinadi.

Mazkur jadval asosida ko'z qarashiga ko'ra, insonning shu lahzada qanday axborot bilan, ko'rish (obrazni suratni xotirayotganligi yoki uni o'ylab topayotganligini), eshitish (sizni eshitayaptimi yoki javob variantini o'ylayaptimi?) yoki kinetik (avvalgi jismoniy his-tuyg'ularni eslayaptimi yoki hozirgi tuyg'ularini analiz qilyaptimi?) ishlayotganligini aniqlash mumkin.

kattalarning o'zaro muloqotini jon qulog'i bilan eshitadi, tushunishga harakat qiladi. Bu davrda bolalar ertak, hikoya, she'rlarni eshitishni juda yaxshi ko'radi. Bu bolaning tashqi olamni bilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bola ijtimoiylashuv jarayonida turli ta'sirlarni (shu jumladan tarbiyaviy ta'sirni) passiv holda holda qabul qilmaydi, balki sekin-asta ijtimoiy ta'sirning obyektidan uning faol subyektiga aylanib boradi. Bolalik davrida insonning o'zligi shakllanadi, o'zi haqidagi tasavvuriga poydevor qo'yiladi. Bola o'zida ehtiyojlar mavjudligi tufayli faollik ko'rsatadi, tarbiyaviy jarayonda ushbu ehtiyojlarni hisobga olinishi bolada faollikning rivojlanishiga yordam beradi.

Bordi-yu tarbiyachilar o'z «tarbiyaviy faoliyatlarini» amalga oshirishlari uchun bola faolligini cheklashga harakat qilib, uni doimo «tinch o'tirish»ga majbur qilsalar, bu bilan ular har tomonlama yetuk, uyg'un tarzda rivojlangan shaxsni emas, balki ijtimoiy moslashuvga qobiliyatsiz, nochor va passiv shaxsni shakllantirishga muvaffaq bo'ladilar.

Bola faolligining doimiy bo'g'ilishi natijasida u ijtimoiy munosabatlarga moslasha olmaydigan, asabiy bo'lib shakllanadi yoki (ma'lum individual xususiyatlarga, masalan, kuchli asab tizimi tipiga ega bo'lganda) faollik turli muqobil yo'llar orqali yuzaga chiqadi (masalan, nima man etilgan bo'lsa, shuni yashirin amalga oshirishga harakat qiladi).

Bola ulg'ayay ekan, maktabda unga singdirilayotgan baho mezonlari (jamiyatda qabul qilingan normalar, qoidalar) ko'chada o'rtoqlari bilan muomalada qabul qilingan baho mezonlaridan keskin farq qilsa, bu uning shaxsiyatida ichki ziddiyatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Ota-ona va bolalar munosabati o'zaro muloqot asosida quriladi. Shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichida, odatda, oilaning ta'siri g'oyatda kuchli bo'ladi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan maqolning zamirida chuqur ma'no yotadi. Chunki bola ijtimoiy rol me'yorlarini aynan ota-onasini

kuzatish, ularga taqild qilish orgali o'zlashtira boradi. Ota-ona xulq-atvori bolaning atrof olamga bo'lgan munosabatini belgilab beradi.

Kichik yoshdagi bolalar bilan bo'lgan mulqotda uchraydigan kamchiliklartardan yana biri, bolaning kattalar tiliga emas, balki kattalarining bola tiliga taqild qilishidir. Aytim ota-onalar ataylab tillarini chuchitib, bola nutqiga moslashtadi. Bu narsa bolalar nutqida turli defektlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

3 yoshli bolalarda bitinchil "inqiroz" davri boshlanadi. Bunda bola o'z "men"ligini o'lad tasdiqlashi zarur. Bu davrda bolalarda «hamma ishni o'zim qilaman», "men o'zim", – degan tushunchalar shakllanadi. Ular qaysar, injiq bo'lib qoladilar. Ota-onalar bu yoshdagi bolalarga tarbiya berishda undagi bu xususiyatlarni hisobga olishlari lozim.

3 yoshdan so'ng bolalardagi inqiroz davri seklinlashib qoladi. Bolaning kattalar bilan bo'ladigan mulqotlari me'yoriylashtadi. Bola bu yoshda ota-onaning diqqat markazida bo'lmaydi, uning fikricha, ota-onasi unga e'tibor bermay qo'yishyapti. Haqiqatda esa bola ancha mustaqil bo'lib qolgan uchin onasi undan ko'ngli to'lib, kamroq e'tibor beradi, bu esa bolaga yuqmaydi. Shuning uchun ota-ona bu davrdagi bolalarga e'tiborliq bo'lishlari lozim.

Bolalarining yetakchil faoliyati maktabgacha davrda o'yin bo'lib hisoblanadi. Kattalar o'yinchqlar tilidan bola bilan mulqotda bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. 9 oylik bolalarga endi o'yinchqlardan tashqari qog'oz, galam ham berish kerak. Shunda bola yozma nutqning rasmlar chizish elementlarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Xalqaro tajriba almashtirish doirasida amalga oshirilgan Koreya davlatiga tashrif bo'yicha delegatsiya qatnashchilari taassurlari bilan o'rtqilashishganida Koreyada kichik yoshdagi bolalarining dars mashg'ulotlarida rasmlar daroslari ko'proq qo'yilar ekan. Buning sababi so'ralganda maqsad faqat bolada estetik didni shakllantirishgina emas, balki, ularda sabr-toqatni, berilgan ishni oxirigacha yetkazish kabi irodaviy sifatlarni shakllantirish ekanligini ta'kidlashgan. Shuning

Ko'zni uqalash

Hech narsani ko'rmaypman, hech narsani bilmayman. O'g'izni bekittishga bo'lgan intilish go'yo ko'zga tushgan narsani olib tashlamog'chi bo'lgandek, xatti-harakatlar bilan yashiriladi. Ko'proq katta yoshdagi odamlar uchun xos.



Bo'yini uqalash va yuqani cho'zish

Odam aldash jarayonida bo'yin va yuz terisining yumshoq to'qimalaridagi ta'sirlanishni sezadi va yengil tortish maqsadida mazkur joylarni uqalash yoki siypalashga ehtiyoj sezadi.



Qo'rquv

Kishida ko'zlarining katta ochilishi va barmoqlar tishlanishi bilan zohir bo'ladigan yuz ifodasi qo'rquv holatini anglatadi.



Ko'z qarashi bilan bog'liq belgilar

Ko'zni olib qochish va tez-tez kiprik qoqish: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar kishi suhbatdosh ko'ziga mulqot vaqtning yarmidan kam vaqt qarasa, uning so'zlari ishonch tug'dirmaydi va uning yolg'on gapirilganida kishining ko'ziga bemalol qarab turish qiyin.

Avvaliga kishining ko'zingizga qarab turib, so'ngra esa birdamiga ko'zini boshqa tomonga, derazaga, pastga yoki tepaga qaratsi, atrofga olazarak boqishi yoki tez-tez kiprik qoqishi uning gaplarining yolg'onligi yoki to'liq haqiqat emasligini anglatadi.

Insomning ko'z qarashi yo'nalishi idrok etishning ichki jarayonlari, turli axborotlar (ko'rish, eshitish, xatti-harakat,

Ikkinchidan, yolg'on so'zlayotganda nutqda, xatti-harakatlarda va yuz ifodalarida xatolar yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqiy qaytarishlar, tartibsiz iboralar, ko'p gapirish va nutqdagi pauzalar. Bundan tashqari, ovoz tonining balandlashishi ham kuchli negativ emotsiyalardan darak beradi.

Shuningdek, qayg'u, qo'rquv, uyat singari emotsiyalar turli emblemalarda (masalan, yelkani qisish), manipulyatsiyalarda va mikroifodalarda aks etadi.

Yolg'onni aks ettiruvchi ba'zi xarakterli jestlarga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Qo'l va yuz bilan bog'liq imo-ishoralalar

Og'izni berkitish



Ongsiz ravishda yolg'on oqimini to'xtatish maqsadida og'izni berkitib olishga intilish. Ko'proq bolalarga xos bo'lgan harakat, ammo birmuncha nozik shakllarda bir umrga saqlanib qoladi.

Og'izga teginish



Og'izni berkitish jestining yig'ilgan ko'rinishdagi shakli, ko'proq o'smirlarga xos.

Barmoqni burunga tekkizish



Og'izni berkitishga intilishning yanada nozikroq shakli. Odatdagi burunni uqalashdan farq qilib, bunda barmoq burunga birdaniga tekkizilishi yoki barmoq bilan burun yengilgina siypalanishi mumkin. Og'izni yopishga bo'lgan birlamchi tabiiy ehtiyoj ongli nazorat ostida burunga yengilgina teginish jestiga aylanadi.



uchun, insondan qunt, sabr-toqat talab etadigan mashg'ulotlar, tasviriy san'at, musiqa kabi sohalarga balalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

O'yin orqali bolalarda sezgi, idrok, xotira, fikrlash, fantaziya kabi ruhiy jarayonlar, shuningdek, xarakter xislatlari, qobiliyat turlari, temperament (mijoz) tiplari rivojlanadi. Bolalarning nutqini, muloqotini rivojlantirishda kattalar muhim rol o'ynaydilar.

Bu davrdagi bolalar o'yini ham o'ziga xos bo'ladi. Bolalar o'yinda turli rollarni o'ynaydilar. O'yin qoidalariga rioya qila boshlaydilar. Muloqot shakllari bola hali guruh bo'lib o'ynamasidan avval, ya'ni o'z-o'zi bilan o'ynaganidayoq shakllanadi. Bu davrda bola o'yin o'ynaganida ko'proq o'zining xatti-harakatlariga e'tibor beradi. O'zaro munosabatlar orqali bola boshqa bola bilan muloqotga kirisha boshlaydi. 4 yoshli bolalar esa ko'proq boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Bu bosqichda bolalar bir-birlari bilan o'yinchoqlarini almashtiradilar, bir-birlariga yordam bera boshlaydilar. Hamkorlikda o'ynaladigan o'yinda bolalar bir-birlarini tushunishga, bir-birlariga yordam berishga o'rganadilar. Endi bola o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladi. O'yin o'ynaganda bolalar ko'pincha boshliq bo'lishga harakat qiladilar. Kim o'yinni tashkil qilsa, u doimo boshliq bo'lgisi keladi. Shunda konflikt (nizolar) kelib chiqadi. O'yindan qoniqmagan bola "men o'ynamayman, sen bilan", – deb noroziligini bildiradi. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyliklari o'yin faoliyati orqali ortib boradi. Mashg'ulotlar orqali bolalarda nutq rivojlanib boradi. Chunki mashg'ulotlarda bolalar she'r yodlaydilar, ertaklar eshitadilar. O'yin vaziyati bolalarda nutq munosabatlarini rivojlantiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar muloqoti: Bola endi maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo'lgan bo'lsa, endi maktab o'qituvchisi, sinf rahbari bilan ham muloqotda bo'ladi. Bolalarda bu davrda mas'uliyat hissi shakllanadi.

Shu o'rinda, bolalarning maktabga tayyorgarligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish joiz deb hisoblaymiz. Psixologiyada «7 yosh inqirozi» deb yuritiladigan inqiroz davri mavjuddir. Bu davr bolaning o'z «men»ligini tengdoshlari orasida tasdiqlashi bilan bog'liq. Bundan tashqari, 7 yoshda bolaning bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat) sifati o'zgarishlari sodir bo'ladi. Boladagi bo'linuvchan beqaror diqqat o'rninga barqaror diqqat shakllana boshlaydi, xotirasi mustahkamlanadi, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Gohida 6 yoshli bolada mana shu sifati o'zgarishlari yuz bermaganligi tufayli ularni maktabga qabul qilish jarayonida «maktabga tayyor emas», degan xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Shu tufayli ota-onalar bolani maktabga bersh chog'ida, albatta, mutaxassis maslahatini olishlari maqsadga muvofiqdir.

Bolani maktabga moslashtirish davri uning butun maktab hayotiga nisbatan ancha qisqa davr, albatta, bu davrning davomligi bolaning maktabga tayyorgarlik holati, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, o'qituvchi va maktabning tayyorgarlik darajasi kabi gator omillariga bog'liq bo'ladi.

I-sinf o'quvchilari bilan muomala uslubini o'qituvchi bolalar xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlari, uning o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro mulog'ga kirisha olish malakalariga qarab tanlaydi. I-sinf o'quvchilari orasida jamao bilan mulog'ot qilish jarayonida turti darajadagi qiyinchiliklarni his qiladigan o'quvchilar bor: gipermulog'otchan (sergap) bolalar; sinf-dars holatidan qo'rqadigan bolalar; javob berishga uyaladigan, shuning uchun hech narsani bilmaydigan yoki guloq solmayotgan o'quvchi bo'lib ko'rindigan bolalar. Ularning har biriga nisbatan o'qituvchi sabr-toqat va xayrixohlik bilan turti xilda yondashishi kerak bo'ladi.

O'qituvchini I-sinf o'quvchilari bilan avtoritar uslubda ish olib borishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. I-sinf bolasi uchun o'qituvchini unga nisbatan mehribonlik bilan ijobiy munosabata bo'lishi o'ta muhimdir. O'qituvchiniing bolaga munosabati faqat uning aniq muvaffaqiyati evaziga bo'lmashligi kerak. Boshlang'ich ta'lim

qismlariga bog'liq. Emotsiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq ovozdaagi ba'zi o'zgarishlarni yashitish juda qiyin.

Tana ham axborot chiqib ketishiga sabab bo'luvchi, yolg'ondan xabar beruvchi manba bo'lib hisoblanadi. Tana harakatlari ovoz va yuz ifodasi kabi miyaning emotsiyalariga oid sohasi bilan bevosita bog'liq emas, shuning uchun ularni nazorat qilish oson. Inson o'z tanasini sezib, ko'rib turadi. Ammo ko'pgina odamlar bunga ehtiyoj yo'q deb o'ylaydilar va tana harakatlarni nazorat qilmaydilar. Natijada tana harakatlari domiy axborot manbayiga aylanadi.

Kishi yolg'on gapira boshlar ekan, uning tanasi ixtiyorsiz ravishda yolg'oni fosh qiluvchi tegishli harakatlarni bajara boshlaydi. Yolg'on so'zlash jarayonida ong osti yuborgan nerv energiyasi inson aytayotgan gaplarga zid bo'lgan xatti-harakatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Yolg'ondan darak beruvchi mikrojestlar orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Yuz muskullari harakati, qorachiq reaksiyalari, terining qizartishi yoki oqartishi, bir daqiqa oralig'ida kiprik qoqish miqdorining ko'payishi va b.q.lar.⁷

Yolg'oni fosh etish uchun juda ko'p savollarga javob topish lozim. Psixologiyaning mazkur sohasida gator tadqiqotlar olib borgan Pol Ekman 38 ta savoldan tuzilgan anketani taklif etadi. Pol Ekman nima sababdan ayrim kishilar yolg'on so'zlashni osongina eplaydilar-u, ayrimlar bu borada qiyinaladilar, degan savolga javob izlab, yolg'on turlarini analiz qiladi.

Oson aldaydigan kishilar xatoliklarga kam yo'l qo'yadilar va „verifikator“ uchun yolg'oni fosh etish murakkablashadi. Yolg'on so'zlashda qiyinaladigan kishilarni esa fosh etish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qiyinchiliklar yolg'on gapirayotgan kishilarning qanday emotsiyalarni his etayotganligi bilan bog'liq. Yashitish lozim bo'lgan emotsiyalar qanchalik kuchli bo'lsa, yolg'on gapirish shunchalik qiyinlashadi.

⁷ Пол Экман. «Психология лжи», Санкт-Петербург, 2001 г.

ulg'ayar ekan, ko'pgina odamlarning aynan so'zlarga ko'proq quloq tutishlarini bilib oladi. Kishilar bir narsani yashirmoqchi bo'lsalar, so'zlarga faqat boshqalar unga alohida e'tibor qaratishlari uchungina emas, balki so'zlar uchun, albatta, javob berish lozimligi uchun ham ularni diqqat bilan tanlashadi. Jahl aks etgan yuz ifodasini yoki qo'pol ohangni rad etish, tan olmaslik mumkin. Ayblayotgan kishining o'zini himoyalanihga majbur etuvchi holatga qo'yish oson. «Mening ovozim odatdagiday. Senga shunday eshitilgandir». Zardali so'zlarni esa inkor etish juda qiyin. Xalqimizda bu borada juda ibratli maqol bor: «Aytilgan gap – otilgan o'q».

So'zlarga e'tibor qaratilishining yana bir sababi, ular orqali aldash hammadan ko'ra osonroqdir. Nutqni oldindan afzal tartibda shakllantirish va hatto yozib olish mumkin. So'zlarni xohlagan odam yodlab olishi va qaytarib olishi mumkin. Yuz ifodasini, jest va ohangni esa faqat professional aktyorgina obdon tayyorlab olishga qodirdir.

Suhbatdoshdan doimo «Yuzingga qarab bo'lmaydi, senga nima bo'ldi?» yoki «Menga nimaga bunday qarayapsan» kabi iboralarni ko'p eshitamiz. Shunga ko'ra, yolg'onchilar yuz ifodasiga ham alohida e'tibor qaratishadi. Yuz, birinchi navbatda, emotsiyalarni aks ettiradi. Ovoz bilan birga, u eshituvchiga so'zlovchining tuyg'ulari haqida axborot beradi, lekin bu axborotlar doim ham to'g'ri bo'lavermaydi, chunki yuz ifodasi ham aldanchi bo'lishi mumkin.

Yuz bevosita emotsiyaga javob beruvchi miya sohalari bilan bog'liqdir. Nimadir emotsiya uyg'otsa, yuz mushaklari beixtiyor harakatga keladi. Kishilar ushbu yuz ifodalariga ta'sir etishni o'rganishlari va u yoki bu darajada ularni yashirishga muvaffaq bo'lishlari mumkin. Ammo buning uchun doimiy harakat va tinimsiz mashqlar zarur.

Suhbatdoshini yolg'on so'zlashda gumon qilayotgan kishilarga ovoz va tana holati va harakatlariga ko'proq e'tibor qaratishlari taklif etiladi. Ovoz ham yuz kabi emotsiyalarga javob beruvchi miya

o'quvchini maktabda o'qishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa bola gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi.

Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishiga baho berilishini, o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga-o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi o'quvchi nutqining o'sishiga katta ta'sir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida o'qituvchining nutqi katta rol o'ynaydi, chunki uning nutqi o'quvchilar uchun namunali nutq hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalarda, eng avvalo, faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida bolalarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun e'tiborini yozish texnikasiga va o'tirish qoidasiga rioya qilishga

ahamiyati katta hisoblangan. Psixologiyada bu muammo alohida soha – yolg'on psixologiyasi sohasida o'rganiladi.

Insonlar yolg'oni fosh etuvchi belgilar mavjudligini bilishganda edi, kamroq aldagan bo'lar edilar. Ammo kishining yolg'on gapirayotganligini yaqqol bildiradigan hech qanday yagona jest, yuz ifodasi yoki ixtiyorsiz muskul qisqartishi ma'lum emas. Faqat his etilayotgan emotsiyalarning so'zlariga mos kelmasligi yoki so'zlarning yomon o'ylab topilganligini anglatadigan belgilar mavjud. Ushbu belgilar axborotning chiqib ketishiga imkon yaratadi. Yolg'oni aniqlashni maqsad qilib qo'ygan odam emotsiyalarning qanday qilib nuqqa, ovozga tana va yuzga ta'sir etishi, yolg'onchi yashitirmoqchi bo'lgan tuyg'ularning qanday namoyon bo'layotganligi, kuzatilayotgan emotsiyalarning qalbaki ligini aynan nima fosh etayotganligini bilishi lozim.

Yolg'oni bilib olish oson emas. Muammolardan biri axborotlarning ko'pligidir. Birdaniga juda ko'p axborotni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Uning manbalari juda ko'p – so'zlar, pauzalar, ovoz ohangi, yuz ifodasi, bosh harakati, jestlar, tana holati, nafas, terlash, yuz qizartishi yoki oqartishi va boshqalar. Bular hammasi vertifikator (aniqlovchi) diqqatiga molik axborotni bitin-ketin yoki birdaniga yetkazishi mumkin. Verifikator ko'rayotgan va eshitayotgan axborotlarning hammasiga bir xilda e'tibor qaratishi zarur emas. Har qanday axborot manbayaiga bir xil darajada suyanish noto'g'ri. Ularning ayrimlari boshqalarga nisbatan ko'proq ma'lumot beradi. Ajablanarlisi shundaki, ko'pgina odamlar, avvalo, eng kam ishonch tug'diradigan manbalar – so'zlar va yuz ifodasiga e'tibor qaratishadi va shu bilan oson xatoga yo'l qo'yishadi.

Yolg'onchilar, o'z xatti-harakatlarining barcha g'irralarini nazorat qilish va yashitishni uddalay olmaydilar. Ular bu narsani juda xohlaganlarida ham eplay olmagan bo'lar edilar. Shuning uchun yolg'onchilar ularning fikricha, boshqalar ko'proq e'tibor qaratadigan xatti-harakatlarini yashitirishadi va qalbaki lashitirishadi. Ular ko'proq so'zlarni obdon tanlashga harakat qilishadi. Inson

qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og'zaki nutqi orqali belgilanadi, ya'ni u so'zni qanday talaffuz etsa, shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqartib aytish bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyati o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi, bolalarning yozma nutqlari ularning og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o'rgatib borishlari zarur.

O'smirlar mulog'otining o'ziga xos xususiyatlari: Nasimiz

davomchilarini nafaqat jismonan baqavvat, balki ma'naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, mulog'ot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. "Tahim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"da shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muomala madaniyatini tarkib topirishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, o'smir va o'spirinlarni mulog'ot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun, avvalo, mulog'otga o'rgatish zarur. O'smir va o'spirinlarni mulog'otga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga ta'vsiya qilish, mulog'ot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir.

Maktabning o'rta va yuqori sinflarda yozma nutq mazmunli, ta'sirli bo'lib, grammatik jihattan tobora to'g'ri, mukammal tuzilib boradi va oqibatda bunday nutq og'zaki nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bolalar nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi o'quvchilar nutqini o'stirishda namuna bo'lib xizmat qilishi kerak.

O'quvchilar tafakkurini o'stirish turli, ularning nutqini o'stirish




«**Amerikacha pozitsiya**». Sherigingiz e'tiroz bildirishga yoki ochiqcha chaqiruv tashlash istagida. Odatda, bunday shaxslar yetakchi yoki tinchlikka rahna soluvchi kishilardir.



Suhbatni davom ettirishdan bosh tortish, suhbatdoshga va vaziyatga o'ta salbiy munosabat. To'liq darajadagi yopiq holat: oyoqlar chalishtirilgan, qo'llar ko'krakda chalishtirilgan.



Qat'iyatsizlik holati: Oyoq-oyoq ustiga qo'yilgan, qo'llar qulf holatida tizzani tutib turadi. O'ziga ishonchsizligini yashirishga harakat qiladi.



Tovonlarning chalishtirilishi – kuchaytirilgan himoya pozasi. Kamtar va uyatchan ayollarga xos xususiyat.



To'piqlarning chalishtirilishi qo'rquvdan, asabiylikdan, salbiy emotsiyalarni yashirish istagidan dalolat beradi. Odatda, so'roq paytida o'z so'zlari va emotsiyalarini nazorat qilishga harakat qilayotgan kishilar o'zini shu holatda tutadi.

3.5. Muloqotda yolg'on psixologiyasi

Yolg'onni fosh etuvchi belgilar va usullar qadim zamonlardan buyon olimlar va faylasuflar uchun muhim tadqiqot obyekti bo'lib hisoblangan. Ayniqsa, sud jarayonlarida, huquqni muhofaza qilishda faoliyat olib boruvchi kishilar uchun mazkur sohadagi bilimlarning

bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Yozma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, ma'ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli reflekslar paydo bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib qolgan bo'lsa, unda bu kamchiliklarni tugatish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalarda yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur.


O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. Chunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri – bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ba'zi hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, uyda (oilada), mahallada, ko'cha-ko'ylarda bo'ladi.

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki kattalar ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson ro'y beradi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. **“Oltin so'zlar”**

(azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoybsiz, bugun boshqachasiz, ochilib keibsis, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq foydalanishimiz zarur. Kattalar mulqotiga yoshlar taqrid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga ehtibor berishimiz kerak. Chunki "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz emas. Kattalar ham bir-birlariga verbal, noverbal va paralingvistik ta'sir ko'rsatadilar. Biz vaqti kelganda imo-ishora, mimika, pauzalar orqali ham bir-birimizga ta'sir eta olamiz. Bir og'iz so'z bilan ham xursand, yoki xafa qila olamiz. Shuning uchun doimo kattalar bir-birlariga samimiy munosabada bo'lib, ta'sir qilishlari lozim.

Kattalar mulqoti ma'lum bir yoshlarda o'ziga xos bo'ladi. Masalan, kattalar ma'lumotlariga, yoshlariga, jinslariga, kasblariga qarab mulqotda bo'ladilar. Keksalar mulqoti o'ziga xosdir. Ular xuddi kichik bolalardak izzat-talab, injiq, e'tibor talab bo'lib qoladilar. Keksalariga ehtiyotkor bo'lib muomalada bo'lish zarur, chunki ko'ngillari nozik bo'ladi. Ularga ko'ngillarini ko'taradigan so'zlarni ko'proq qo'llash zarur.

Demak, har bir yoshga kiradigan kishilar, shu jumladan, kattalar ham o'ziga xos mulqotga kirishadilar. Mulqot har bir davrga xos holda amalga oshiriladi.



A B O'zi tomonga tortish:

B – yumshoq tabiati va faqat o'z shaxsiy doirasida o'zini yaxshi his qiladigan o'ziga ishonchsiz odam.

3.3. Mulqotda ochiq va yopiq holatlar

Subhatdoshning qanday holatda o'tirishi uning his-tuyg'ulari, sizga va vaziyatga bo'lgan munosabati haqida axborot beradi. Ochiq va samimiy mulqot uchun imkoniyat yaratuvchi holatlar «ochiq holatlar» deb ataladi.

Qo'llar chalishtirilmagan, erkin holatda suyanchiq ustiga qo'yilgan; Agar suyanchiq bo'lmasa, tizzalar ustiga qo'yilgan, gomat tik holatda va bir vaqting o'zida biron bo'sh qo'yilgan. Oyloqlar ham chalishtirilmagan, tabiiy va erkin holatda, to'g'ri qo'yilgan (oyqoni oyoq ustiga qo'yish mumkin, bu narsa yuqori darajadagi erkinlikdan darak beradi).



Subhatdosh ko'zingizga diqqat bilan xotirjam tikiladi. Bosh to'g'riga qaragan (yon tomonga egilmagan, «burnini ko'tarmagan», «qosh ostidan» tikilmagan). Yelkalar erkin holatda tushirilgan.



«Yopiq holatlar» esa kishining o'zini noqulay sezayotganligi, noxush vaziyatdan o'zini himoya qilishga intilishdan darak beradi.

«Oyoqning-oyoqqa chalishtirilishi» oddiy holat:

O'ng oyoq chap oyoq ustiga qo'yilgan. Kishi asabiy, siqiq, o'z zaitfigini yashirishga harakat qiladi. Vaziyatga salbiy munosabada.





A B Itoat etishga tayyorlik:

A B ning ustunligini tan oladi va unga bo'ysunishga tayyor. *A* ning kaftlari yuqoriga qaragan.



A B Hamkorlik, o'zaro hurmat:

Ikkala qo'l kafti vertikal holatda.

Ikkita kuchli shaxs bir-biri bilan salomlashayotganda qo'llarning yetakchilik holatini egallash uchun ramziy kurashi yuz beradi. Kurash natijasida hamkorlikni namoyon etuvchi qo'l siqishi vujudga keladi.

Bu qo'l berib so'rashish jestlari ichida eng maqbuli.



A B «Qo'lqop» usulidagi salomlashish:

Siyosatchilar qo'l siqishi: *A B* ga o'zining to'g'riso'zligi va ishonchga sazovor ekanligini ta'kidlamochi bo'ladi. Agar kishilar birinchi marotaba uchrashayotgan bo'lsalar, *A* ning munosabatida ehtiyotkorlik hamda shubha mavjudligini anglatadi.



A B «O'lik baliq» ko'rinishidagi so'rashish:

A ning qo'l siqishi sovuq va bo'shang, bu uning xarakteri kuchsizligi va passivligidan darak beradi. *A* qo'lni osonlik bilan ustun holatga keltirish mumkin.



A B «Barmoqlar qirsillashi» ko'rinishida salomlashish:

B agressivligini va yon bermasligini namoyish etadi.



A B Masofani saqlash:

B ning qo'li uzatilgan holatda, o'z shaxsiy doirasiga kiritmaslik maqsadida *A* ni masofada ushlab harakat qiladi. Bu holat *B* ning agressivligini xarakterlaydi.

II-BOB.

MUOMALA VA FAOLIYAT

2.1. Muomala psixologiya kategoriyalaridan biri sifatida

Muomala – bu birgalikdagi faoliyat ehtiyojidan kelib chiqadigan odamlar orasidagi aloqalar rivojlanishining ko'p qitrali jarayonidir [113].

Hozirgi davrda shaxslararo muomalaning kishilar turmush tarzining zaruriy sharti ekanligini isbotlashning hojati yo'q. Chunki shaxslararo muomalasiz insonda nafaqat biror-bir psixik funksiya yoki psixik jarayonning, balki shaxsning butun psixik xususiyatlarining to'laqonli shakllanishi mumkin bo'lmagan bo'lardi.

Muomala psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatlarning eng muhim mexanizmlarini gamrab oladi. Muomala kategoriyasi keng ma'noda tushunilganda, hamkorlik faoliyatining jumla ichki aloqasini mujassamlashtiradi va o'zaro ta'sirlar, o'zaro munosabatlarni aks ettiradi.

Muhim kategoriyalardan yana biri mulqot psixologiyasidir. Ayan «Men – Sen», «Men – Biz», «Biz – Ular» formulalari asosida kechadigan mulqot jarayonida shaxsning xususiyatlari, holati va xarakterini namoyon bo'ladi. Samarali, ishan mulqotni yuqori darajada ta'minlash uchun kishilar chuqur psixologik bilimlarga asoslangan zamonaviy muomala texnologiyalaridan foydalanishni o'zlashtirishlari lozimdir.

Mulqot jarayonida sheriklar orasida, masalan, o'zaro munosabatga kiritshuvchi tomonlardan birining shaxsiy mavqega nisbatan hurmatsiz munosabat tufayli turli qarama-qarshiliklar va hatto jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Yoki u yoki bu axborotni uzaatish jarayonida so'zdan ehtiyotsizlik, no'noqlik bilan foydalanish oqibatida axborotlarda muhim darajadagi yo'qotishlarga yo'l qo'yilishi xizmat vazifalarini bajarishda jiddiy xatoliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi holatlar paydo bo'lmashligi uchun maxsus mulqot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish talab etiladi.

3.4. Qo'l berib so'rashish uslubini va xakteri

Muomala jarayonida o'zaro salomlashish mulqotning eng muhim komponentlaridan biridir. Qo'l berib so'rashish avvalda dushmanlik istagining yo'qligini namoyish etishni bildirgan bo'lsa, keyinchalik kishilik jamiyati uchun etiketga aylanadi. Suhbatdoshning qo'l berib salomlashish uslubini uning xakteri va emotsional holati haqida axborot beradi.

Bundan tashqari, noverbal xatti-harakatlar milliy va madaniy asosga ega. Har bir millat, mamlakat kishilari o'z madaniy, milliy xususiyatlariga mos ravishda yurish-turish, turli imo-ishoralar, tana harakatlari mimikalardan iborat bo'lgan noverbal xatti-harakatlar tizimiga ega. Birgina keng tarqalgan qo'l berib so'rashish jestini har xil millat vakillari turli xilda qabul qilishadi. Masalan, Rossiyada guruhdagi bita odam bilan alohida qo'l berib so'rashish mumkin bo'lsa, Bolgariyada butun guruh bilan so'rashib chiqishga to'g'ri keladi. Fransiya va Italiyada uzatilgan qo'lningizni albatta sig'ishadi, Angliyada esa cho'zilgan qo'lningiz havoda muallaq qolib ketishi mumkin. Afrika va Yaqin Sharq xalqlarida suhbatdoshga tegib gaplashish mulqotning zarur sharti bo'lib hisoblanadi, yapon madaniyati muomalada bevosita yaqin aloqa (kontakt) ni maqbul ko'rmaydi. Shuni e'tiborga olish lozimki, har qanday mamlakatda shoshqalochlik bilan qo'l uzatish ma'qullanmaydi.

Qo'l berib salomlashish 3 turdagi his-tuyg'ulardan birini: ustunlikka intilish, itoat etishga yoki hamkorlik munosabatlari ta'yoriqlikni aks ettiradi.

Ustunlikka intilish:

A B A B A B ustidan ustunligini namoyish etadi, uning katti pastga qaragan. **A B** ni boshqarishga harakat qiladi, shuning uchun u bilan ehtiyot bo'lib muomala qilish lozim.





Iyakni silash

Qaror qabul qilish jarayoni. Agar oldingi baholash (*zerikish, qiziqish, tanqidiy baho*) jestlaridan so'ng o'z fikr-mulohazasini bayon etish so'ralsa, iyakni silash jesti paydo bo'ladi. Bu holatda odamga xalaqit bermagan va shoshiltirmagan ma'qul.

Avtoritarlik, agressivlik



O'z hukmini, o'z xulq-atvor qoidalarini o'tkazishga intilish. O'ng qo'l xuddi zarba berish holatidagidek musht bo'lib tugilgan va ko'tarilgan. Ko'pincha do'q va ovozni balandlatish bilan birgalikda kechadi.

Tamaki tutunini yuqoriga puflash



Agar kishi tamaki tutunini yuqoriga qarab yo'naltirsa, bu narsa uning o'z-o'ziga ishonishi, kimdandir ustunligini his qilayotganligi, vaziyatni ijobiy baholayotganligi kabi ijobiy his-tuyg'ularni his etayotganligidan darak beradi.

Tamaki tutunini pastga puflash



Tutunning pastga qarab yo'naltirilishi, mazkur kishining salbiy emotsiyalarni his qilayotganligidan, vaziyatni negativ baholayotganligidan, sizdan biror-bir noxush narsada shubhalanayotgan yoki o'zining qaysidir fikrini, maqsadini yashirishga harakat qilayotganligidan darak beradi. Agar kishi tamaki tutunini pastga qarab og'iz chetidan chiqarayotgan bo'lsa, bu uning vaziyatga o'ta salbiy munosabatda ekanligi va uning sir boy bermaydigan kishi ekanligini bildiradi.

Muloqot psixologiyasida qo'llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Bugungi kunda kooperatsiyalarsiz, ya'ni bir necha yoki ko'plab kishilarning xatti-harakatlarini umumlashtirmasdan, uyushtirmasdan turib, ishchan faollik haqida gapirish mumkin emas. O'z navbatida, samarali kooperatsiya mehnat jarayoni qatnashchilarining barchasi uchun umumiy bo'lgan xatti-harakat va xulq-atvor qoidalarini qabul qilinishini taqozo etadi. Shuning uchun har qanday guruhning shakllanishi jarayonida guruhiy maqsadlar, ehtiyojlar, manfaatlar, guruhiy normalar, guruhiy ong, axloqiy psixologik hodisalarga ehtiyoj tug'iladi.

Insoniy faollikning ajralmas sifatlaridan yana biri uyushganlik va tartiblilikdir. Faollikni tartibga soluvchi axloqiy qoidalar va me'yorlar inson hayotini, uning farovonligini saqlash va ta'minlashga yo'naltirilgan.

Axloqiy – etik meh'orlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to'plami odatda **professional etika** deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to'plami mavjud.

Professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

Shaxslararo munosabatlardagi egoizm nafaqat munosabatlarga ziyon yetkazadi, balki ularni butunlay izdan chiqaradi. Shuning uchun munosabatlarni doimiy ichki nazorat mexanizmi vositasida axloqiy – etik me'yorlar asosida qurish muhimdir. Ishchan muloqot etikasi oxir-oqibatda o'zaro hamkorlikka sharoit yaratuvchi sheriklarning axloqiy qoidalar va me'yorlarga mos xatti-harakatlariga asoslanishi kerak.

Bu qoida va me'yorlarning ma'no mohiyati – o'zaro ishonchni mustahkamlash, o'z harakat va maqsadlaridan muloqotdagi sherikni doimiy xabardor qilish, muloqotdagi sherikni aldash hamda chalg'itishga umuman yo'l qo'ymaslikdan iboratdir [117].

Kishilarning ijtimoiy munosabatlari va ularning shaxslararo munosabatlari, ushbu munosabalar tizimida mulogotning o'ri, mulogot strukturasi tahlili, uning kommunikativ, interaktiv va perseptiv tomonlari muammolarining chuqur tahlili G.M. Andreyevaning ishlari da ochib beriladi [33, 34].

Muomala va o'zaro hamkorlik faoliyatining bir-biri bilan bog'liqligi bo'yicha fundamental ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar MDU bilan chex psixologlari hamkorligida amalga oshirilgan.

Muomala va faoliyat o'zaro bog'liqligi tadqiqotining mantiqini bayon qilish ekanlar, G.M. Andreyeva va Ya. Yanoushek shuni ta'kidlaydilar, barcha bog'liqlik asosiy diqqat muomalaning o'zaro hamkorlik faoliyati bilan determinatsiyasi qonuniyatlarini aniqlashga qaratildi, ya'ni muomalaning o'zaro hamkorlikning bir qator xarakteristikalarini shartlanganligi isbotlandi. Mazkur tadqiqotlar daryoq muomalaning barcha xarakteristikalarini ham o'zaro hamkorlik rivojlanishi darajasi va mazmuni bilan bog'liq emasligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat rivojlanishida muhim rol o'ynay boshlaydi. Shuning uchun keyingi vositasida tug'ilgan muomala ko'pincha mazkur faoliyat aniqlashda muomala qanday qilib, qay darajada, qaysi shakllarda va bog'liqlik elementlari orqali o'zaro faoliyat rivojiga va uning takomillashtiruviga ta'sir etishiga asosiy e'tibor qaratildi. G.M. Andreyeva i Ya. Yanoushek muomalaning o'zaro hamkorlikka ta'siri tadqiqotining bir qator yo'nalishlarini belgilab berishadi.

Birinchi yo'nalish muomalaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jarayonlarining hamkorlikdagi faoliyatga va insonlar orasidagi munosabatlarga ta'sirini tadqiq etish.

Muomalaning o'zaro faoliyatga ta'siri tahlilining boshqa bir yo'nalishi muomalaning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jarayonlarining o'zaro hamkorlik subyekti sifatidagi guruh va jamoa rivojlanishi darajasiga ta'sirini aniqlashdan iboratdir. Shunga ko'ra, tadqiqotning mazkur yo'nalishi A.V. Petrovskiyning guruhdagi

Tana holati va yuz ifodasi

Agressiya
Ko'zoynak usidan qarash kechayotgan hodisalar ga tanqidiy munosabatni anglatadi, subbatdoshni himoyalashga va o'z-o'zini oqlashga majbur etadi.



Ko'zoynak tutqichini tishlash
Vaqtini cho'zishga intilish. Tinchlantiruvchi jest. Kashandalar bu maqsadda sigaretadan foydalanishadi, bolalar barmog'ini so'ra boshlaydi.



Fikrlash
Chuqur mulohaza, o'z fikr va tuyg'ulariga g'arq bo'lish. So'nggi qarorni qabul qilish arafasi.



Zerikish
Eshituvchi uxlab qolmaslik uchun boshini qo'li bilan ushlab turadi. Boshning kaftiga butunlay suyanib olishi qiziqishning umuman yo'qligidan dalolat beradi. Ko'pincha buning ustiga barmog' uchlari bilan stolni taqillatish yoki oyog'larni qimirlatish, sabrsizlik, boshqa eshitishni xohlamaslikni namoyish etadi.
Barmog'lar yaram bukilgan holda qo'lning chekkaga yengil qo'yilishi (bosh qo'lga suyanmasligi lozim) haqiqiy qiziqish paydo bo'lganligidan dalolat beradi.



Tanqidiy baho
Eshituvchi tomondan ko'rsatkich barmog'ning vertikal holatda chekkaga qo'yilishi, shu bilan birga bosh barmog'iyakni tutil turishi uning so'zlayotgan kishiga yoki umuman ushbu vaziyatga tanqidiy munosabatini bildiradi.



Bosh va ko'rsatkich barmoqlar bir-biriga tekkizilgan holat



Aniqlik, tartib va mantiqiylik tarafdori. Nasihatgo'ylik va murabbiylik jesti. «Okey» jesti bilan adashtirmaslik lozim.

Kaftlar tepaga qaragan, barmoqlar yarim bukilgan



O'ziga tortuvchi yetakchilik, hukmronlik. Vaziyatni boshqarish va ustunlikka intilish.

Ikkala qo'l barmoqlarining bir-biriga chalishtirilgan holat



Yuz oldida qo'llarning chalishtirilishi oqlanmagan umidlar va o'z salbiy munosabatini yashirishga harakat qilinayotganligidan dalolat beradi.

Ikkala qo'l barmoqlarining stol ustida yoki o'tirgan odam uchun tizzada chalishtirilishi



Hatto odam jilmayayotgan yoki quvnoq ovozda so'zlayotgan bo'lsa-da, ushbu holat hafsalaning pir bo'lganligi va jahlni yashirishga harakat qilayotganligidan darak beradi.

«Piramida» jesti



O'z-o'ziga ishonch «Men hammasini bilaman» degan ma'noni bildiradi, o'z qo'l ostidagilar bilan gaplashayotgan rahbar yoki boshqalarga yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan kishilarga xos harakat.

shaxslararo munosabatlarning faoliyat bilan shartlanganligi konsepsiyasi va g'oyasi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Uchinchi yo'nalish o'zaro faoliyat va muomala tizimida shaxsni o'rganishga qaratiladi, shu o'rinda o'zaro hamkorlikdagi faoliyat sharoitida shaxsning shakllanishi va undagi o'zgarishlar tadqiqi shaxs kategoriyasini ilmiy tushunishda asosiy kalit vazifasini o'tashi ta'kidlanadi [34, B. 7-19].

G.M. Andreyevaning fikriga ko'ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol o'ynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko'p qirrali jarayonidir.

Har qanday axborot faqat belgilar, aniqrog'i belgilar tizimlari orqali berilishi mumkin. Kommunikativ jarayonda foydalaniladigan bir qancha belgilar tizimi mavjud bo'lib, ularga mos tarzda muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalarni tasniflash mumkin.

Belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalanadigan nutqiy va turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalanadigan nutqsiz muloqot vositalari farqlanadi.

O'zini oqlamagan umidlar va o'z-o'zini

nazorat holati:

Qo'l go'yo, o'zini noto'g'ri harakatlardan tutib qolish maqsadida boshqa qo'l bilagidan yoki yuqoriroqdan qattiq ushlab turadi. Qo'l qanchalik yuqoridan ushlagan bo'lsa, kishining asabi shunchalik tarang bo'ladi.

Hujumga tayyorlik:

Musht bo'lib tugilgan barmoqlar va chalishtirilgan qo'llar dushmanlarча munosabatni bildiradi. Odatda bu holat tishlarning bir-biriga jipslashishi va yuzning gizarishi bilan birga kechadi. Bu jestedan so'ng kishi odatda so'z bilan yoki jismoniy hamla qilishi kuzatiladi.



Qo'l kattilari bilan bog'liq belgilar

Ochiq kaftlar

Qo'l jestlari orasida eng maqbuli. Ochiqlik haqoniylik, suhbatdoshni tan olish va unga ishonch belgisidir.



Kaftlar o'z-i tomonga qaratilgan

Yanada yaqin, chin ko'ngildan bir-birini tushunishga asoslangan mulqotga taklif. Yurakdan chiqayotgan so'zlar.



Kestin aylantiruvchi qo'llar

Suhbatdosh uni to'g'ri tushunishlarini istagan holda faol qo'l harakatlarni amalga oshiriladi, o'z fikrlarini yetarli darajada ochiq-oydin bayon etishga harakat qiladi.



2.2. Mulqotda ta'sir etish usullari

Mulqot, shuningdek, individuallarning bir-birlariga kommunikativ ta'sirining muayyan usullarini ham o'z ichiga oladi. Ta'sir etish usullarining quyidagi turlari farqlanadi:

Ergashtirish – ta'sir ko'rsatishning kishilar ommasini muayyan tarzda, ayniqsa, ommaviy tartibsizliklar, diniy jazavalar, ommaviy psixozlar bilan bog'liq ravishda birlashtiruvchi maxsus usuli.

Eng umumiy tarzda ergashtirishni individualning ongiz, ixtiyorsiz ravishda muayyan ruhiiy holatlarга tushishga moyilligi sifatida ta'riflash mumkin. U muayyan hissiy holatning bironvaga o'tkazilishida namoyon bo'ladi. Ushbu hissiy holat odamlar ommasida yuzaga kelganligi bois, mulqotga kirishuvchi kishilar hissiy ta'sirining o'zaro ko'p marra kuchayishi mexanizmi amal qiladi.

Inontirish (vnushenie) – biron narsa isbotsiz tasdiqlanadigan yoki inkor etiladigan xabarlarini tanqidiy qarashsiz qabul qilishga qaratilgan kommunikativ ta'sir ko'rsatish usuli. Ushbu psixologik hodisa haqidagi bilimlar rivojlanishning hozirgi darajasida «inontirish mantiqiy isbotlashsiz shakllangan ishonchga tayanadi va individualdan individualga, jamoadan shaxsga va aksincha beriladi yoki, aniqrog aytganda, avtomatik tarqaladi», degan qoidaga asoslanadi [45, B.42].

Inson inontirish ta'siriga ixtiyorsiz tushib, uning ta'sirida o'zi anglamagan holda harakat qila boshlaydi.

E'tiqod mavjud qarashlar, mayllar, nuqtayi nazarlar, munosabat va baholarni o'zgartirish maqsadida u yoki bu qoida, qarash, qilmishning to'g'rihigini yoki ularga yo'l qo'yib bo'lmashigini mulqot, tushuntirish va isbotlash orqali odamlarning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga ta'sir ko'rsatishdir. E'tiqod kommunikativ ta'sir ko'rsatishning eng universal usuli hisoblanadi. E'tiqod mexanizmi inson aqliy faoliyatini jadalashtirishga, uning maqsadga erishish yo'llari va vositalarini ongli ravishda tamlashga asoslangan. Kimidir nimagadir ishonitirish – ishonitirayotgan shaxs mantiqiy mulohazalar va xulosa chiqarishlar natijasida muayyan nuqtai nazarga




Qo'llar chalishtirilishining yashirin ko'rinishi: o'z qo'lidan tutib turish. Bu holat atrofdagilar bilan ko'rinmas to'siq o'rnatadigan yarim himoya holati.



Amalga oshmagan umidlar vaziyatga negativ munosabat:

Mazkur jest kishiga o'z xotirjamligini saqlab turishga imkon beradi. Ota-onalar salbiy noxush va xavfli holatlarda bolalarning qo'lidan xuddi shunday ushlab olishadi.



Kishi qat'iy pozitsiyani egallagan:

Nafaqat qo'llar chalishtirilgan, balki barmoqlar qo'l yuqorisidan mahkam tutib turibdi. Ushbu holat kishining vaziyatga bo'lgan negativ, tushkun munosabatini aks ettiradi.



Kishining o'ziga ishonchi yo'q va chalishtirilgan qo'llar to'sig'i bilan o'zini himoya qiladi.

U o'zini siqilgan holatda sezadi, muloqotga va o'zaro tushunishga intilmaydi. Balki suhbatdosh unga yoqmaydi yoki uni xafa qilgan.



Yashirin asabiylik:

Qo'llar chalishtirilishining yashirin ko'rinishi ko'proq ommaviy nutq so'zlash chog'ida ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'lgan kishilar tomonidan qo'llaniladi. Kishi xavfsizlikni his qilish maqsadida sumkasi, soati yoki to'g'nog'ichiga tegish orqali himoya to'sig'i hosil qilishi mumkin.

qo'shiladigan va uni himoya qilishga tayyor holatga erishishni bildiradi.

Taqlid qilish, deb ongli va ongsiz ravishda namunadan nusxa olishga aytiladi. U guruh, jamoani tashkil etuvchi odamlarning xatti-harakatiga xos bir xil usullarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Shaxslararo idrok etishning effektlaridan biri – boshqa shaxs haqidagi umumiy tasavvurning uning shaxsiga xos xususiy xislatlarni idrok etish va baholash ta'sirida namoyon bo'ladigan «oreol effekti» dir. Agar umumiy tasavvur yaxshi bo'lsa, uning ijobiy xislatlari ortiqcha baholanadi, salbiy xislatlari esa sezilmaydi va aksincha. Boshqa effekt – «izchillik effekti» bo'lib, u ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan taqdirda inson qiyofasini va u to'g'risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma'lumotlar eng ko'p ta'sir etishida namoyon bo'ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo'lsa, aksincha, eng oxirgilari ko'p ta'sir ko'rsatadi.

«Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb qarashda namoyon bo'ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o'qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarining stereotiplari mavjud. Muayyan guruhning vakiliga duch kelganda, biz oldindan unga ushbu guruh vakillari bo'lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko'pincha bunday stereotipdan xalos bo'lish juda qiyin bo'ladi [82].

Ijtimoiy idrok etish effektlari ijtimoiy mayl bilan chambarchas bog'liq, uning paydo bo'lishiga olib keladi. Ijtimoiy maylning o'zi insonning boshqa odamni idrok etishga ruhan tayyor bo'lishi sifatida ta'riflanishi mumkin. Notanish kishi haqida taassurotning shakllanishida maylning ahamiyati ayniqsa katta A.A. Bodalevning ushbu holda ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib bergan eksperimentlari yaxshi ma'lum.

Eksperimentlardan birida ikki guruh odamlarga aynan bir kishining surati ko'rsatilgan. Ammo suratni ko'rsatishdan avval birinchi guruhga suratdagi kishining ashaddiy jinoyatchi ekanligi,

ikkinchi guruhga esa bu shaxsning katta olim ekanligi aytilgan. Shundan so'ng har bir guruhga fotosuratdagi kishini og'zaki portretini tasvirlab berish so'ralgan. Birinchi guruh uni quyidagicha ta'riflagan: «chuqur ko'zlarini yashirin yovuzligidan darak beradi, bo'rtib chiqqan engagi – jinoyatni «oxiriga yetkazishga» qaror qilganidan darak beradi» va hokazo. Tegishliicha, ikkinchi guruhda aynan o'sha chuqur joylashgan ko'zlar tafakkurining teranligidan, bo'rtib chiqqan engak esa quyinchiliklarni yengishdagi iroda kuchidan darak beradi deb, baholangan [51].

Nutq – bu verbal kommunikatsiyadir. Verbal kommunikatsiyada inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq inson tomonidan qo'llaniladigan tovush signallari yoki yozma belgilaridan iborat bo'lib, ular orqali mulqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Bu jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilar tizimi bo'lib, u mulqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Ma'lumki, nutqning o'ziga xos tashqi, ichki, og'zaki va yozma turlari mavjuddir. Og'zaki nutq o'z navbatida dialog, monolog va pollog tarzida amalga oshirishi mumkin.

Monologik nutq shaxsning qarashlari, fikrlari va bilimlari haqida batartil axborot beruvchi nutq turidir. Monologik nutq ko'pincha oldindan tayyorlanadi, aniq tizimga va mazmunga ega bo'ladi.

Yerati so'z boyligiga ega bo'lmagan kishi o'z fikrlarini muassal va mantiqli bayon etishga qiynaladi. Xalqimizda shunday ibratli ibora bor: «Inson aql-u farosati uning nutqining aniqligida namoyon bo'ladi».


Nutq kasbiy mulqotning muhim vositasidir. Til nutq va tafakkur kishilar faoliyatida ularning o'zaro mulqoti jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

3.2. Tana holatlari

Ochig kafilarning suhbatdoshga ko'rsatishi
 ochig holatdagi kishi.
 Bunday holat kishining to'g'riso'zligi, samimiyligini yaqqol namoyish etadi.



Hujumga o'tish holati: go'llar cho'ntakda, bosh barmoqlar tashqariga chiqarilgan. Barmoqlarning namoyishkorona tashqariga chiqarilishi mazkur kishining o'zini suhbatdoshdan ustun sezayotganligidan dalolat beradi. O'z qo'l ostidagi xodimlar bilan suhbatlashayotgan rahbarlarga xos.



Liderlik sifatlarini yashirayotgan kishi:
 Qo'llar orqada, bosh barmoq tashqariga chiqarilgan. Kuchli va hatto agressiv kishilar ko'pincha shu holatni egallaydilar.



Hujumkor holat: go'llar cho'ntakda bosh barmoqlar tashqariga chiqarilgan.



O'z-o'ziga ishonch va ustunlik holati: yuqori darajadagi boshliqlar va rahbarlar uchun xarakterlidir.



Himoya holati: Qo'llar va oyoqlar chalishitirilgan. Notanish muhitga va begona odamlar orasiga tushib qolgan, o'ziga ishonchsiz kishi holati. Ko'pincha bu holatda kishi barcha tugmalari gadalgan, boshqalardan uzogroq masofada turishga harakat qiladi.



odam shunday holatni egallasa, uning gaplarining to'g'riligiga, chin ko'ngildan chiqayotganligiga shubha bilan qarashga asos bo'lishi mumkin.

• **Qo'llar orqada chalishtirilgan** – ongsiz ravishda o'z qo'rqmasligini namoyish etish maqsadida qorinni hamda ko'krakni oldinga chiqarishga imkon yaratuvchi o'z-o'ziga ishonch va ustunlik ishorasi. Stress vaziyatida xuddi shunday holatni egallash orqali birmuncha yengil tortish, erkinlik va o'z-o'ziga ishonchni his qilish mumkin. Tutib turgan qo'l ikkinchi qo'lning qanchalik yuqorisidan ushlagan bo'lsa, kishining shunchalik ko'proq jahli chiqayotgan bo'ladi. Bu holatda kishi o'zini nazorat qiladi va barcha haqiqatni aytayotganligiga ishonish qiyin.

Shartli ravishda barcha holat va jestlarni **yopiq** (oyoqlar va qo'llar chalishtirilgan), o'zini himoya qilish, nosamimiylik, yomon niyatni anglatuvchi hamda o'z-o'ziga ishonch, xotirjamlik, muloqotga moyillik va hamfikrlilikni bildiruvchi **ochiq** holat va jestlarga ajratish mumkin.⁶

⁶ Mazkur bo'limdagi rasm va materiallar «Personalni boshqaruv» (Moskva - 1996-1997) jurnali ilovasidan olindi.

2.3. Kasbiy faoliyatda kommunikativ kompetentlik muammolari

«Kompetensiya» atamasi (com'etentia) yunoncha so'z bo'lib, qismlar muvozanati, tenglik yoki simmetriklik ma'nolarini bildiradi. Etimologiyaga ko'ra, kompetentlikning asosiy belgisi – «mos kelmoq», «mos tushmoq»dir.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya psixodiagnostikasi uning quyidagi omillarini baholashni talab etadi: intellektual imkoniyatlar, kommunikativ qobiliyatlar, irodaviy xususiyatlar, munosabatlar tizimi, shaxs yo'nalganligi, motivatsiya omillari.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya ma'lum turdagi faoliyat subyekti xarakteristikasi bo'lib, uning mazmuni bevosita mazkur faoliyatning maqsadi va tuzilishidan, uning o'ziga xos talablaridan kelib chiqadi. Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning turli komponentlari kasbiy faoliyatning turli sohalarida muvaffaqiyatlilikni va muvaffaqiyatsizlikni hamda faoliyat subyektining mazkur faoliyatga, faoliyat predmetiga mosligini belgilab beradi [125].

Kasbiy kommunikativ kompetentlik quyidagi shaxs sifatlarini o'z ichiga oladi:

– turli muloqot qatnashchilari bilan emotsional aloqalar o'rnatish qobiliyati, ular bilan zaruriy chegarada ishonchli munosabatlarni o'rnatish va uni ta'minlash;

– suhbatdoshning ichki dunyosini, uning psixologik o'ziga xos tomonlarini, ehtiyojlari, xatti-harakat motivlari, psixik holatlarini seza olish va tushunish qobiliyati;

– insonlarga nisbatan xushmuomala va do'stona munosabat, dialog qatnashchisini eshitish qobiliyati, suhbatdosh kechinmalariga emotsional munosabat bildirish qobiliyati;

– muloqotning verbal va noverbal vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarini egallash;

– ziddiyatli vaziyatlarda kommunikativ xatti-harakat strategiyalaridan samarali foydalana olish, sharotidan kelib chiqqan holda muomala shaklini o'zgartira olish malakasi;

– hamkorlik, kompromiss va kelishuvlariga qobiliyatlik;
– ekstremal vaziyatlarda o'z emotsiyalari, kayfiyatini nazorat qila olish qobiliyatining rivojlanganligi;

– o'ziga bo'lgan bahoning adekvatligi;

– yumorni tushunish qobiliyati.

Kommunikativ jarayonlar samaradorligini pasaytiruvchi sifalar:

siqqlik (autizm), o'z kechimmalariga va muammolariga yuqori darajada e'tibor qaratish (intoverlik); maamanlik, dimog'dorlik, janjalkashlik, jizakilik, agressivlik; emosional beqarorlik, impulsivlik; mulqotning verbal va nonverbal vositalarini egallash darajasining pastligi [89, 119, 140].

Odamlarni o'ziga moyil qilish, ularning ishonchini qozonish qobiliyati ishonchli munosabalar o'rnatishga, undan operativ ahamiyatli ma'lumotlarni olishga imkon beradi. Mulqot sohasida ishlovchi mutaxassislar muomala jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beradigan eng muhim xislatlardan biri boshqa odamlarni tinglay olishdir, deb hisoblaydilar. Siz hamsuhbatningizni diqqat bilan tinglaganligingizda bu bilan o'zingizning u aytayotgan gaplarga qiziqishingizni namoyish etasiz, unga nisbatan hurmatingizni namoyon etasiz. Bu esa psixologik aloqa o'rnatishni yengillashtirishga yordam beradi.

Psixologik aloqa o'rnatish mulqotning kerakli yo'nalishida rivojlanishini va belgilangan maqsadga erishilishini ta'minlovchi sharotlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtiriladigan faoliyatdir. Psixologik aloqa o'rnatishda mulqot rivojlanishi umumiy jarayonning bir qismini qamrab oluvchi bir nechta bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

– mulqotni oldindan rejalashtirish;

– aloqa o'rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharotlarni yaratish;

Xatti-harakat va holatlar tili

Inson haqida uning o'zi aytayotganidan ko'ra ko'proq ma'lumot olish, insonni kitob singari o'qish – uning fikrlari, his-tuyg'ulari, xarakter xususiyatlari haqida so'zlaridan ko'ra ko'proq ma'lumot beradigan xatti-harakatlar tili tushunish demakdir. Odatda, inson o'z holati, jestlari, yuz ifodasi, ovoz ohangini nazorat qilmaydi. Odamning asosiy diqqati uni tushunishlari va o'z maqsadiga yetish uchun nimalar deysishga qaratiladi. Shuning uchun so'zlar gohida biror-bir fikr yoki tuyg'uni bayon etish o'rninga uni yashirishga xizmat qiladi. Odam haqida ma'lumot olish uchun uning so'zlariga to'g'ri baho bera olishning o'zi kifoya qilmay, balki xatti-harakatlar tili tushuna bilish katta ahamiyat kasb etadi.⁵

Quyida biz mulqot chog'ida ishlatiladigan ayrim harakat va holatlar ma'nosi haqida fikr yuritamiz:


• **Qo'llar tana bo'ylab pastga tushirilgan** – har qanday sharotida xotirjam va aql bilan harakat qila oladigan, o'ziga ishongan kishi. Uning so'zlari hamda xatti-harakatlari chuqur o'ylangan va mantiqli. Bu holatdagi odam ochiq va boshqalar kutganidek o'zini tabiiy tutadi.

• **Qo'llar cho'ntakda yoki belda** – agressiv va hujumga o'tishga shay bo'lgan kishi. Agar sizning tanishlaringizdan birortasi ko'pincha shunday holatni egallasa, bu uning avtoritarligi boshqalarga ta'sir va hukm o'tkazishga intilishidan darak beradi.

• **Qo'llar ko'krakda chalishtirilgan** – o'ziga ishonchsizligini yashirishga harakat qilayotgan kishi. Chalishtirilgan qo'llar himoya reaksiyasi bo'lib, mulqotda, o'zaro bir-birini tushunishda to'siq mavjudligini namoyish etadi. Agar tinglovchi shunday holatni egallasa, bu uning sizning fikringizga qo'shimlayotganligi, gapingizni eshitishga xohishi yo'qligidan darak beradi. Mabodo, gapirayotgan


⁵ Буркенюв В. Язык интонации, мимики, жестов. СПб.: Питер, 1997.

qanday joyni tanlashiga qarab, ularning guruhdagi statusini osongina aniqlab olishingiz mumkin.



Bu yerda stol boshida devorga orqa o'girib o'tirgan kishi **A** eng katta nufuzga ega bo'lgan shaxsdir. O'z nufuziga ko'ra ikkinchi o'rinda turadigan kishi bu **B** dir. U ham barcha o'tirganlarni bema'lol kuzatish imkoniga ega, ammo u eshikka orqa o'girib o'tiribdi. «Bosh shaxs»ga eng yaqin joyni egallagan **V** o'z nufuziga ko'ra uchinchi o'rinni egallagan. **G** ning o'rnini to'rtinchi, eng kamtarona o'rinni **D** egallagan. **B** shaxs sizga nisbatan birmuncha muvofiqsiz pozitsiyani egallaydi, **V** esa sizning fikringizni ma'qullaydi, **D** sizning har qanday qaroringizga bo'ysunishga tayyordir.

Ish yuzasidan suhbatlar dumaloq stolda uyushtirilganda o'zaro hamkorlik muhitini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.



- tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish;
- kelishuvlarni to'plash;
- umumiy va neytral qiziqishlarni izlab topish;
- muomaladagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar;
- individual ta'sir etish.

Muloqotni oldindan rejalashtirish. Psixologik aloqa o'rnatish chog'ida maqbul tarzda munosabatga erishish uchun harakatlarning avvaldan tuzilgan rejasiga ega bo'lish, bo'lg'usi muloqotning qanday kechishini oldindan ko'rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishish mo'ljallanayotgan shaxs haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Masalan, uning muomalaga kirishuvchanlik xislatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Shaxs bilan aloqaga kirishishni osonlashtiradigan ochiqlik, qiziquvchanlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, odoblilik kabi xislatlar ham mavjud. Shu bilan birgalikda, aloqa o'rnatishni qiyinlashtiradigan ortiqcha asabiylik, jizzakilik, tajovuzkorlik, shubhaga beriluvchanlik, alamzadalik kabi shaxsiy xislatlar mavjud. Muloqotni oldindan rejalashtirish chog'ida yuqorida sanab o'tilgan xislatlarning mavjudligini doimo inobatga olish zarur.

Aloqa o'rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish. Har bir muayyan vaziyatda tashqi sharoitlar muomala jarayonida muloqot qilish zarur bo'lgan ijtimoiy rolga ideal ravishda mos kelishi kerak. Hech narsa muloqotga xalaqit bermasligi, suhbatdoshingizni chalg'itmasligi kerak. Vaziyat ishonchli suhbatga moyil bo'lishi lozim. Shaxslararo masofa, shaxsiy maydonlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ulardan muomala jarayonida unumli foydalanish zarur.

Tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish. Qiyofada namoyon bo'ladigan tabassum muloqotdagi sherikni moyil qiladi, unda beixtiyor ijobiy xislatlar keltirib chiqaradi. Bu esa psixologik aloqa o'rnatishda juda muhim.

Stoʻlining suhbatdoshlar orasidagi tabiiy toʻsiq vazifasini oʻtashi ularning har biri oʻz nuqtai nazarini himoya qilish maqsadida qatʼiy pozitsiyani egallashiga olib keladi. «Kim – kimni» yengishi borasida raqobat paydo boʻladi. Mehmon mulqotda taranglik va noqulaylik sezadi, mezon esa, oʻz qoʻl ostidagilar bilan gaplashayotgan rahbar pozitsiyasini egallaydi.

Mustaqil pozitsiya.

A



B

Bunday pozitsiyani bir-biri bilan mulqot etishni xohlamagan yoki oralarda oʻzaro adovat mavjud boʻlgan kishilar egallaydilar. Bunday holat suhbatga qiziqishning yoʻqligi yoki hatto dushmanlik mavjudligidan dalolat beradi. Suhbat chogʻida bunday pozitsiyadan qochish lozim.

Suhbatdan maqsadningizdan kelib chiqqan holda, mulqotga qanday atmosfera singdirmoqchi boʻlganingizga qarab, 3 pozitsiyadan birini tanlang. Mutaxassislar ishchan mulqot uchun eng maqbul pozitsiya bu burchak pozitsiyasi ekanligini taʼkidlashadi. Agar sizning faoliyatningiz koʻproq odamlar bilan ishlashni talab qilsa, ularning sizning huzaurningizda oʻzlarini erkin va tabiiy his qilishlariga imkon yaratishni oʻz oldingizga maqsad qilib qoʻyishingiz lozim.

Ekspertment tartiqasida bir nechta stullarni mazkur pozitsiyalariga mos keladigan holatda qoʻyib, suhbatdoshingizni oʻtirishga taklif qiling. Qayerga oʻtirishga qarab uning sizga va suhbatga boʻlgan munosabatini aniqlab olishingiz mumkin.

Agar siz birdamiga bir nechta kishini suhbatga chaqirgan boʻlsangiz va ularni oʻtirishga taklif qilsangiz, har bir kishining

Kelishuvlarni toʻplash. Mulqotning dastlabki bosqichida suhbatdoshning sizning fikringizga qoʻshilishiga erishish, uning roziligini toʻplash zarur. Bunda nima masalada rozilikka erishilganining ahamiyati yoʻq: roziliklar soni muhim. Savolni shunday qoʻya olish lozimki, suhbatdosh siz bilan rozi boʻlmashligi mumkin boʻlmasin. «Siz yolgʻon gapirganlarni yoqtirmaysiz, toʻgʻrimi?», «Siz albatta, adolat qaror topishini xoxlaysiz, shundaymi?» va hokazo).

Ummiy va neytral qiziqishlarni izlash. Mulqotning dastlabki bosqichida odamni oʻziga moyil qilish, u bilan til topish muhim. Ushbu maqsadga erishish uchun ummiy va, ayni paytda, neytral qiziqishlarni aniqlash yordam beradi (bu xobblar: markalar, tangalar, kitoblar yigʻish; sport, turizm kabi qiziqishlar boʻlishi mumkin). Ummiy qiziqishlar va ularni izlash doimo ijobiy his-tuygʻular kelirib chiqaradi va ushbu vaziyatda aloqa tashabbuskori mazkur his-tuygʻularning manbai boʻladi. Qiziqishlar boʻyicha mulqotga kirishishning oʻzi ham suhbatlarni yaqinlashtiradi.


Mulqotdagi toʻsiqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlari. Odamlar bilan psixologik aloqani yoʻlga qoʻyishda mulqotdagi quyidagi toʻsiqlarga eʼtibor berish va ularni bartaraf etishga qaratilgan zarur choralarni koʻrish kerak: boʻlgʻusi mulqotga salbiy munosabat; mulqotning rivojlanishini qiyinlashtiruvchi, bunga yoʻl qoʻymaydigan ruhiy holatning mavjudligi; begona shaxslarning aralashuvi va boshqalar. Barcha toʻsiqlarni yoʻqotish – psixologik aloqa oʻrnatishning zarur bosqichidir.

Individual taʼsir etish. Kishi psixologik aloqa oʻrnatishni ham suhbat shaxsiga individual taʼsir koʻrsatish bilan yakunlashi kerak. Ham suhbatning oʻzi buni kutadi. Ushbu taʼsirning maqsadi – undan ishonchli axborot olish. Bunda kelajakdagi ishonchli munosabatlarning qandaydir umumiy normalari ishlab chiqilishi mumkin.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda verbal kommunikatsiya – soʻz, ogʻzaki va yozma


Bular quyidagilardir:

Burchak pozitsiyasi.




Bu pozitsiya suhbatdoshning ko'zi va uning xatti-harakatlari, jestlarini bema'lol ko'rish imkonini berib, uning o'z shaxsiy qiymatini sezishiga, ochiq, samimiy va erkin muloqot qilishiga sharoit yaratadi. Siz bu bilan suhbatdoshingizga hurmat va do'stona munosabatingizni namoyish etasiz.

Hamkorlik pozitsiyasi.



Suhbatdoshlarning to'liq o'zaro tengligi va o'zaro ishonchini bildiradi. Mehmonni o'z hududiga kiritar ekan, mezbon muammoni hal qilishdagi umumiy manfaatdorlikni ta'kidlaydi. Ko'pincha bu holatda do'stlar va bitta umumiy ish bilan mashg'ul kishilar o'tirishadi. Bu muloqotda ikkala qatnashchining samimiy ochiq suhbat uchun norasmiy muhit yaratiladi.


Raqobat – himoya pozitsiyasi.



nutq keng qo'llaniladi, ammo olimlarning ta'kidlashlaricha noverbal belgilar – mimika, vizual aloqa (ko'z kontakti), muomalaning masofa va vaqt o'lchamlari, jestlar, tana harakatlarini o'qiy olish samarali muloqotning muhim shartidir [55].

ham maxsus belgilar tizimi bo'lib, kommunikativ tizimlarning tarkibiy qismi sifatida ma'noga ega bo'ladi.

So'nggi vaqtlarda psixologik tadqiqotlarda muloqotga kirishuvchi shaxslar o'rtasidagi distansiyaning kommunikativ ahamiyatiga va muloqot samaradorligining sheriklar joylashuviga bog'liqligi masalalariga e'tibor berilmoqda. Mulohazaga kirishuvchilar o'rtasidagi masofalarning to'rt turi farqlanadi: intim (0-0,5 m), shaxsiy (0,5-1,5 m), ijtimoiy (1,5-3 m), ommaviy (3 metrdan ortiq).



Kishi masofani o'zgartirish organi subbatdoshiga qo'shimcha ta'sir ko'rsatishga erishishi mumkin, chunki bu bilan sheriklar o'rtasidagi munosabatlar xususiyati o'zgaradi.

Nutqsiz kommunikatsiyalar bo'yicha tanqili mutaxassis Allan Piz subbat xarakteriga ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblangan, mulohot stoli atrofida subbatdoshlarning bir-biriga nisbatan joylashuvining 4 xil pozitsiyasini keltiradi.⁴

III BOB. SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NOVERBAL NUTQIY KOMMUNIKATIV VOSITALARNING AHAMIYATI

⁴ Пиз Аллан. Язык телодвижений: как читать мысли других людей по их жестам. – М.: Ай-Кью, 1995. – 257с

Noverbal nutqiy vositalarning turlari

1. Vizual vositalar:

- kinesika – qo‘l, bosh, oyoq, tana harakatlari, qadam tashlash;
- yuz ifodasi, ko‘z ifodasi;
- pozalar – qomat, boshni tutish;
- qarash yo‘nalishi, vizual aloqalar;
- teri reaksiyalari – qizarish, oqarish, terlash;
- proksemika (muomalani tashkil etish zamoni va makoni) – suhbatdosh bilan oraliq masofa, masofa oralig‘i burchagi, shaxsiy kengliklar;

- qo‘shimcha muloqot vositalari – qaddi-qomat xususiyatlarini bo‘rttirish yoki yashirish (jinsni, yoshni, irqni); tabiiy tana tuzilishini o‘zgartirish (kiyim, soch turmagi, kosmetika vositalari, ko‘zoynak, taqinchoqlar, tatuirovkalar, mo‘ylov va soqol, qo‘ldagi kichik ashyolar).

2. Akustik vositalar:

- paralingvistik (ovoz sifati, uning diapazoni, tonalligi) – balandligi, tembri, maromi, tovush balandligi;
- ekstrolingvistik – nutq pauzalari, kulgu, yig‘i, xo‘rsinish, yo‘talish, qarsak.

3. Taktil vositalar:

- takesika – teginish, qo‘l siqish, quchoqlashish, o‘pishish.

4. Olfaktor vositalar:

- yoqimli, yoqimsiz hidlar;
- insondan taraladigan tabiiy va sun‘iy hidlar.

Noverbal vositalarda har bir madaniyat o‘z izini qoldiradi, shuning uchun butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan me‘yorlar yo‘q. Boshqa mamlakatlarning tilini o‘rgangan kabi uning noverbal tilini o‘rganish ham zarurdir.

Kommunikativ jarayonni tashkil etish zamoni va makoni, shaxslararo masofa. Nutqsiz vositalarning birinchi guruhiga kommunikativ jarayonni tashkil etish makoni va zamoni kiradi. Ular

3.1. Noverbal nutqiy kommunikativ vositalarning o‘rganilish tarixi

Noverbal nutqiy kommunikativ vositalar (tana holatlari va jestlar, tashqi ko‘rinish, mimika, yuz ifodasi) ning insoniy muloqot jarayonidagi roliga olimlar azaldan qiziqib kelganlar. 2000 yil avval Sitseron notiqarni jestlardan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatgan. Jestlar bo‘yicha birinchi lug‘at Rim notig‘i Kvintalianga tegishli. Jon Bolivarining 1664-yilda yozilgan, imo-ishoralar tiliga bag‘ishlangan «Xirologiya yoki imo-ishoralar tili» va «Xiromaniya yoki qo‘l ritorikasi san‘ati» nomli asarlari insonning ma‘noli imo-ishoralarini o‘rganish borasida yangi qadam bo‘ldi. Charliz Darvinning «Inson va hayvonlar tomonidan emotsiyalarning ifodalanishi» nomli shu mavzuga bag‘ishlangan asari 1872-yilda chop etilgan.

XX asrda D.Efron, Ch.Morris, M.Krichli, J.Fast, A.Piz, T.Bryun, R.Berdvistel va boshqalar tomonidan jestlar haqida o‘nlab yirik ishlar chop etildi.

Rossiyada kommunikativ harakatlarning o‘rganilishi 60-yillardan boshlandi. B. Uspenskiy va T. Nikolayevalar, O. Axmatova, I. Gorelova, L. Kapnadze, Y. Krasilnikova, G. Olshanskiy, G. Kovaleva, V. Labunskaya, A. Leontev, Y. Petrova va boshqalar noverbal kommunikativ vositalarni o‘rganish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ish olib borishgan.

Noverbal kommunikatsiyalarga – belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga mimika (yuz harakatlari) va pantomimika (qo‘l-oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo‘lib, u orqali insonning o‘ylari, emotsional holati namoyon bo‘ladi. Yunoncha mimikos – «taqlid etuvchi» ma‘nosini anglatadi. Chunki kishining emotsional holatiga taqlidan yuz muskullarining qisqarishi yuz ifodasini o‘zgartiradi va insonning holati haqida darak beradi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

jestlar – go'l harakatlari bo'lib, u organi insonning ichki holati, biror-bir obyektga munosabati anglanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italiyaliklar va fransuzlar o'z mulqotlarini jestlarisiz tasavvur eta olmaydilar. O'zbek xalqida nutqda jestlardan ko'p foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi.

Verbal kommunikatsiya muomala jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda asosiy vositalardan biridir, ammo olimlarning ta'kidlashlaricha verbal belgilar – mimika, vizual aloqa (ko'z kontakti), muomalaning masofa va vaqt o'lchamlari, jestlar, tana harakatlari o'qiy olish samarali mulqotning muhim shartidir. Nima sababdan, verbal axborotlar muomalada bunchalik muhim o'rin tutadi?

1. Inson 70% axborotni vizual – ko'rish kanali orqali qabul qiladi;

2. Verbal xatti-harakatlar suhbatdoshning haqiqiy his-tuyg'ularini tushunishga imkon yaratadi.

3. Inson haqidagi ilk taassurot verbal omillar – yurish, yuz ifodasi, qarash, o'zini tutish manerasi, kiyinish va boshqalar orqali hosil bo'ladi.

Mulqotning verbal vositalari quyidagilar xizmat qiladi:

1) psixologik aloqani tashkil etish va uni ta'minlash, muomala jarayonini tartibga solishga;

2) so'z matniga yangi ma'no bo'yog'larini berish, ma'noning kerakli yo'nalishga qaratilishiga;

3) emotiviyalarni, bahoni, qabul qilingan rolni, vaziyat ma'nosini aks ettirishga yordam beradi [140].

Verbal vositalarga har bir madaniyat o'z izini qoldiradi, shuning uchun butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan me'yorlar yo'q. Boshqa mamlakatlarning tilini o'rganagan kabi uning verbal tilini o'rganish ham zarurdir.

Verbal signallarning qiymati shundaki, ular beixtiyor, ongsiz ravishda yuzaga keladi va so'zdan farqli o'laroq, domo haqiqiy tuyg'ularni aks ettiradi. Eksperimental tadqiqotlar orqali muomala

foiz ma'nomi yetkazadi.

Verbal xatti-harakatlar milliy va madaniy asosga ega. Har bir millat, mamlakat kishilari o'z madaniy, milliy xususiyatlariga mos ravishda yurish-turish, turti imo-ishoralar, tana harakatlari, mimikalardan iborat bo'lgan verbal xatti-harakatlar tizimiga ega.

Birgina keng tarqalgan go'l berib so'rashish jestini har xil millat vakillari turli xilda qabul qilishadi. Masalan, Rossiyada guruhdagi bitta odam bilan alohida go'l berib so'rashish mumkin bo'lsa, Bolgariyada butun guruh bilan so'rashib chiqishga to'g'ri keladi. Fransiya va Italiyada uzatilgan go'lningizni, albatta, sig'ishadi. Angliyada esa cho'zilgan go'lningiz havoda muallaq qolib ketishi mumkin. Afrika va Yaqin Sharq xalqlarida suhbatdoshga tegib gaplashish mulqotning zarur sharti bo'lib hisoblanasa, yapon madaniyati muomalada bevosita yaqin aloqani maqbul ko'rmaydi. Shuni e'tiborga olish lozimki, har qanday mamlakatda shoshqaloqlik bilan go'l uzatish ma'qullanmaydi [65].

Muomalaning verbal vositalari quyidagilar xizmat qiladi:

1. Psixologik aloqani tashkil etish va uni ta'minlash, muomala jarayonini tartibga solishga;

2. So'z matniga yangi ma'no bo'yog'larini berish, ma'noning kerakli yo'nalishga qaratilishiga;

3. Emotiviyalarni, bahoni, qabul qilingan rolni, vaziyat ma'nosini aks ettirishga yordam berish.